

YETKAZIB BERISH TIJORAT SHARTLARI ASOSIDA TOVARLARNING STATISTIK QIYMATINI ANIQLASH XUSUSIYATLARI

T.Shodiyev.

O‘zbekiston Respublikasi Bojxona instituti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Bugungi kunda mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatini liberallashtirish va kengaytirish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish, milliy mahsulotlarimiz eksport salohiyatini oshirish, byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish, mahalliy mahsulotlarni tashqi bozorlarga chiqarish va tadbirkorlarga qulay shart-sharoit yaratish borasida muhim islohotlar o‘tkazilmoqda. Ko‘zlangan vazifalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi asosan bojxona organlari faoliyati samaradorligiga bog‘liq.

Kalit so‘zlar: preferensiya, erkin savdo zonasi, bojxona boji.

Mamlakatlar o‘z iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish sharoitida Xalqaro savdo palatasi tomonidan tashqi savdo tushunchalari va qoidalarini tizimlashtirish hamda uyg‘unlashtirish borasida maqsadli ishlar olib borilmoqda. Bu borada, statistik ma‘lumotlarning to‘liqligi, haqqoniyligi va tashqi savdo jarayonlarida tovarlarning statistik qiymatini mamlakatlar aro solishtirilishini ta‘minlash masalalari muhim ahamiyatga egadir. Tashqi savdo bojxona statistikasi tashqi savdo bo‘yicha davlatlar statistikasining asosiy tarkibiy qismi hisoblanib, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi, uning xalqaro tijoratdagi o‘rni haqida zarur ma‘lumotlarni olish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, tashqi savdo bojxona statistikasi ma‘lumotlaridan tashqi savdo bo‘yicha davlatlararo statistik ma‘lumotlarni solishtirishda foydalaniladi. Tashqi savdo bojxona statistikasi O‘zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi 376-moddasida quyidagicha ta‘riflangan:

“Tashqi savdo bojxona statistikasi O‘zbekiston Respublikasining tashqi savdo tovar aylanmasi bo‘yicha uning miqdori va qiymati ifodalangan, tizimlashtirilgan ma‘lumotlar yig‘indisidan iboratdir.

Tashqi savdo bojxona statistikasining asosiy vazifalari davlat organlarini O‘zbekiston Respublikasi tashqi savdo tovar aylanmasining holati to‘g‘risidagi axborot bilan ta‘minlash, O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga bojxona to‘lovlarining tushishini nazorat qilish, valyuta nazoratini va O‘zbekiston Respublikasi bojxona organlari zimmasiga yuklatilgan boshqa vazifalar amalga oshirilishini ta‘minlashdan iborat.”

Rossiya Federatsiyasi bojxona kodeksi 26-moddasida esa tashqi savdo bojxona statistikasi uchun quyidagi ta‘rifni ko‘rishimiz mumkin:

“Rossiya Federatsiyasi tashqi savdosining holatini tahlil qilish, federal byudjetga bojxona to‘lovlari tushumini nazorat qilish, valyuta nazorati, Rossiya Federatsiyasi tashqi savdosining holatini, dinamikasi va rivojlanish tendensiyalarini, uning savdosini tahlil qilish. va to‘lov balanslari va umuman iqtisodiyot, bojxona organlari tovarlarning

bojxona chegarasi orqali o'tishi to'g'risidagi ma'lumotlarni to'playdi va qayta ishlaydi va Rossiya Federatsiyasining tashqi savdosining bojxona statistikasi to'g'risidagi ma'lumotlarni Rossiya Federatsiyasi Prezidentiga, Federal Majlisga taqdim etadi."

Mazkur masalalar bo'yicha ishlar olib borilishi uchun tashqi savdo bojxona statistikasi ma'lumotlari barcha mamlakatlar uchun umumiy bo'lgan prinsiplarini o'z ichiga olgan, shu bilan birga ayrim mamlakatlarning o'ziga xos xususiyatlarini ham e'tiborga olgan umumiy uslubiyat asosida shakllantirilishi talab etiladi. O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo bojxona statistikasi uslubiyati (bundan buyon matnda Uslubiyat deb yuritiladi) "O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo bojxona statistikasi uslubiyatini tasdiqlash to'g'risida"gi 2016-yil 26-iyulda qabul qilingan Davlat Bojxona Qo'mitasining 197 sonli buyrug'i asosida yuritiladi. O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo bojxona statistikasi uslubiyati O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining 375-376-moddalari hamda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi(MDH) Hukumat rahbarlari kengashining 2013-yil 20-noyabrdagi qarori bilan tasdiqlangan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlar tashqi savdo bojxona statistikasi yagona uslubiyatiga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo bojxona statistikasini shakllantirish tartibini belgilaydi.

Uslubiyatning maqsadi – ko'p sonli foydalanuvchilar, shu jumladan qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat organlari, milliy va xalqaro tashkilotlar, tadqiqot muassasalari va jamiyatning talab-ehtiyojlariga javob beruvchi tovarlar tashqi savdosi statistikasini shakllantirish konsepsiyasini belgilab berishdan iboratdir.

Uslubiyatga ko'ra statistik qiymatini aniqlash O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2016-yil 6-aprelda 2773-son bilan ro'yxatga olingan Bojxona yuk deklaratsiyasini to'ldirish tartibi to'g'risidagi Yo'riqnoma talablariga muvofiq amalga oshirilishi lozim.

Tovarning statistik qiymati – "Tashqi savdo bojxona statistikasi uslubiyati"ga asosan aniqlanadigan va yagona bazis(asos)ga keltirilgan, ming AQSh dollarida aniqlanadigan tovar qiymatidir.

Tovarlar importida statistik qiymatni baholash CIF – "O'zbekiston Respublikasi porti" yoki CIP – "O'zbekiston Respublikasi chegarasida mo'ljallangan joy" narxlari asosida amalga oshiriladi.

Tovarlar eksportida statistik qiymatni baholash O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining 316-317 moddalarida keltirilgan tartib va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2016-yil 6-aprelda 2773-son bilan davlat ro'yxatidan o'tgan "Bojxona yuk deklaratsiyasini to'ldirish tartibi to'g'risidagi yo'riqnoma" asosida aniqlanadi va bojxona yuk deklaratsiyasining (BYuD) 46 grafasida "ming AQSh dollari" ko'rinishida ko'rsatiladi.

Importda tovarning statistik qiymati, tovarning faktura (shartnoma) qiymatini CIP O'zbekiston Respublikasi chegarasi (yoki CIF O'zbekiston Respublikasi chegara porti) yetkazib berish shartiga keltirib, quyidagi formula asosida qayta hisoblanadi:

$$42gr. (CIP/CIF ga keltirilgan) * 23gr.$$

$$46gr. (st. qiymat) = \text{-----}$$

13 gr. * 1000

Bu yerda,

13gr. – ByuDning 13-grafasida ko‘rsatiladigan, BYuD bojxona rasmiylashtiruvi uchun qabul qilingan kundagi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan AQSh dollarining O‘zbekiston Respublikasi milliy valyutasi “so‘m”ga bo‘lgan nisbati (kursi);

23gr. – ByuDning 23-grafasida ko‘rsatiladigan, BYuD bojxona rasmiylashtiruvi uchun qabul qilingan kundagi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan shartnoma valyutasining O‘zbekiston Respublikasi milliy valyutasi “so‘m”ga bo‘lgan nisbati;

42gr. – ByuDning 42-grafasida ko‘rsatiladigan tovarning faktura qiymati bo‘lib, u oldi-sotdi shartnoma shartlari asosida BYuDning 31 grafasida deklaratsiya qilinayotgan tovar bo‘yicha shartnoma valyutasida to‘langan, to‘lanishi lozim bo‘lgan yoki tovar jo‘natish yordamida kompensasiyalanadigan tovarning shartnoma valyutasidagi faktura qiymatidir;

46gr. – BYuDning 46-grafasida ko‘rsatiladigan tovarning statistik qiymati.

Kontrakt (shartnoma) valyutasi - tovar bahosining tashqi savdo shartnomasini tuzish paytida belgilangan valyuta ko‘rinishidir. Agar shartnomadagi tovarlar qiymati AQSh dollarida baholangan bo‘lsa, shartnoma valyutasi AQSh dollarini tashkil etadi, nemis markasida baholangan bo‘lsa nemis markasida yoziladi va hokazo.

Tovarning shartnoma valyutasida ifodalangan qiymatini AQSh dollariga nisbatan hisoblab chiqish bojxona yuk deklaratsiyasi bojxona rasmiylashtiruviga qabul qilingan kundagi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan valyuta kursi bo‘yicha amalga oshiriladi.

Eksportda tovarning statistik qiymati, O‘zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining 316-317 – moddalarida keltirilgan tartib asosida quyidagi formula asosida qayta hisoblanadi:

$$46gr.(st.qiymat) = \frac{45gr.(keltirilgan qiymat) * 23gr.}{13gr. * 1000}$$

Bu yerda, 45gr. – ByuDning 45-grafasida ko‘rsatiladigan, deklaratsiya qilinayotgan tovarning shartnoma valyutasidagi bojxona qiymati.

Shuni ham aytib o‘tish kerakki, qo‘shilishi yoki chegirib tashlanishi lozim bo‘lgan barcha xarajatlar tegishli hujjatlar bilan tasdiqlangan bo‘lishi lozim.

Yetkazib berish tijorat shartlari asosida tovarlarning statistik qiymatini aniqlash Bojxona yuk deklaratsiyasida quyidagi mantiqiy tekshiruv (algoritm) orqali keltirib chiqariladi:

O‘zbekiston Respublikasi hududidan **eksport** qilinayotgan tovarning statistik qiymatini hisoblashda yetkazib berish tijorat shartlarining inobatga olinishi quyidagicha amalga oshiriladi (1-chizma):

1. Shartnoma bo'yicha yetkazib berish tijorat shartining turi aniqlanadi. U bojxona yuk deklaratsiyasining 20-grafasida "Yetkazib berish shartlari" ko'rsatilgan.


2. Agar tovar DAP - O'zbekiston Respublikasi chegarasida belgilangan joy yetkazib berish shartlarida sotilgan bo'lsa, u holda statistik qiymatini hisoblab chiqishda BYuDning 45-grafasida ko'rsatilgan hamda BYuDni bojxona rasmiylashtiruviga qabul qilingan sanadagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo'yicha AQSh dollariga qayta hisoblangan bojxona qiymatidan foydalaniladi.

3. Agar tovar, yetkazib berishning boshqa shartlarida sotilgan bo'lsa, u holda BYuDning 45-grafasidagi ma'lumotlarini DAP - O'zbekiston Respublikasi chegarasida belgilangan joy qiymatiga keltiriladi va AQSh dollarida qayta hisoblanadi.

4. Tovarni faktura qiymatiga tuzatish kiritishda:

- tovar E (EXW) yoki F (FCA, FAS) guruhiga kiruvchi yetkazib berish shartlarida sotilgan bo'lsa, u holda tovarni eksport qiluvchi mamlakatning dengiz yoki quruqlikdagi chegarasigacha yetkazib berish bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlar qo'shiladi;

- tovar C guruhiga (CFR, CIF, CPT, CIP) yoki D guruhiga (DAP-importyor mamlakati chegarasi, DAT, DDP) kiruvchi yetkazib berish shartlarida sotilgan hollarda, tovarni eksport qiluvchi mamlakatning chegarasidan keyingi xarajatlar chegirib tashlanadi.



1-chizma. Eksport qilinayotgan tovarlarning statistik qiymatini aniqlashning mantiqiy nazorati

O'zbekiston Respublikasi hududiga import qilinayotgan tovarning statistik qiymatini hisoblashda yetkazib berish tijorat shartlarining inobatga olinishi quyidagicha amalga oshiriladi (2-chizma):

1. Shartnoma bo'yicha yetkazib berish tijorat shartining turi aniqlanadi. U bojxona yuk deklaratsiyasining 20-grafasida "Yetkazib berish shartlari" ko'rsatilgan.

2. Agar tovar CIF-O‘zbekiston Respublikasi daryo, havo porti yoki CIP-O‘zbekiston Respublikasi chegarasida ko‘rsatilgan joyiga yetkazib berish shartlarida xarid qilingan bo‘lsa, statistik qiymatini hisoblab chiqishda bojxona yuk deklaratsiyasining 42-grafasida berilgan hamda bojxona yuk deklaratsiyasini bojxona rasmiylashtiruvi uchun qabul qilingan sanada O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo‘yicha AQSh dollariga qayta hisoblangan faktura qiymatidan aniqlanadi, ya‘ni $gr46 = gr42/1000$ AQSh dollari.

3. Agar tovar boshqa yetkazib berish shartlarida xarid qilingan bo‘lsa, 42-grafa ma‘lumotlarini CIF yoki CIP yetkazib berish shartlariga keltiriladi va AQSh dollariga qayta hisoblanadi.

4. Tovarni faktura qiymatiga tuzatish kiritishda:

- tovar E guruhiga (EXW), F guruhiga (FCA, FAS, FOB), C guruhiga (CFR, CPT) kiruvchi yetkazib berish shartlarida sotib olingan bo‘lsa, tovarning faktura qiymatiga tovarlarni O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududida olib kirish joyigacha yetkazib berish bo‘yicha faktura qiymatiga kiritilmagan qo‘shimcha xarajatlar qo‘shiladi;

- tovar CIP-O‘zbekiston Respublika hududi ichkarisida ko‘rsatilgan joy, DAP, DAT, DDP yetkazib berish shartlarida bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan keyingi xarajatlarni tovar faktura qiymatidan chegirib tashlanadi.

Bunda, bojxona hududida olib kirish joyi deganda:


1) Avia transportda tashishda – mo‘ljallangan aeroport yoki tovarlarni tashiyotgan samolyot qo‘ngan O‘zbekiston Respublikasi hududidagi birinchi aeroport;

2) Dengiz va daryo transportida tashishda – yuk tushiriladigan birinchi porti yoki mamlakat hududidagi tushirib-ortish porti (agar tovarlarni tashishda ushbu port bojxona organi tomonidan tasdiqlangan bo‘lsa);

3) Avtomobilda va temir yo‘l transportida tashishlarda – O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirishda chegarani kesib o‘tish punkti (O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududida joylashgan birinchi bojxona organi joylashgan joy);

4) Pochta orqali jo‘natiladigan tovar uchun – xalqaro pochta ayirboshlash punkti tushuniladi.

Shuni ham aytib o‘tish kerakki, qo‘shilishi yoki chegirib tashlanishi kerak bo‘lgan barcha xarajatlar tegishli hujjatlar bilan tasdiqlangan bo‘lishi lozim.



2-chizma. Import qilinayotgan tovarlarning statistik qiymatini aniqlashning mantiqiy nazorati

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, tovarlarning statistik qiymatini aniqlash O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2016-yil 6-aprelda 2773-son bilan ro'yxatga olingan Bojxona yuk deklaratsiyasini to'ldirish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomaga muvofiq amalga oshirilishi lozim. Ushbu yo'riqnomaga ko'ra

tovarlarning statistik qiymati bojxona yuk deklaratsiyasining 46 grafasida bojxona rejimlari kesimida quyidagicha aks ettiriladi:

- **Eksportda:** 46-grafa “Statistik qiymat”ni aniqlash.

Grafada, 45-grafada (bojxona qiymati) keltirilgan bojxona qiymati asosida hisoblangan, matematik qoidalarga ko‘ra verguldan so‘ng uch belgigacha aniqlikda yaxlitlangan, tovarning ming AQSh dollaridagi qiymati ko‘rsatiladi.

Statistik qiymatni hisoblashda BYuD bojxona rasmiylashtiruvi uchun qabul qilingan kunda amalda bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs qo‘llaniladi.

Misol uchun, yetkazib berish sharti “FCA-Navoiy viloyati”, faktura qiymati 49321,24 AQSH dollariga teng bo‘lgan Eksport tovarining (1-rasm) statistik qiymatini aniqlash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:



$$46 \text{ gr.} = 45 \text{ gr. (USD) / 1000}$$

Izoh:

- Transport xarajati – FCA-Navoiy viloyati dan 29 grafa “Chegara bojxona posti” gacha sarflangan xarajat (2- rasm).

Ya‘ni,

$$42 \text{ gr} = 49321,24\$$$

Transport xarajati (Navoiy shahridan “Do‘stlik” chegara kompleksigacha ketgan xarajatlari) = 300\$

Demak, 45 gr. => $49321,24\$ + 300\$ = 49621,24\$$

46 gr. => $49621,24\$/1000 = 49,621$ (ming AQSH dollarida)

ГРУЗОВАЯ ТАМОЖЕННАЯ ДЕКЛАРАЦИЯ А EDV468531 ТД 1

Копия / 12012 / 24.02.2022 / 0000418, 1 / 1

1 Тип декларации
ЭК 10

3 Доб. лист
1

4 Стр. спец.
1

5 Воюв с
навм. т-ра

6 Кол-во мест
1

7 Справочный номер
12012 / 24.02.2022 / 0000418

2 Отправитель/экспортёр
№
СП ООО AKFA ENGINEERING AND MANAGEMENT, Ташкент, Учтелинский район, ул. Кадырбекова
СП ООО "AKFA EXTRUSIONS"
Навоийская область, Кармановский район, СЗЗ "Навои" Республика Узбекистан
ИНН: 206211534 Реликс: 1712234

8 Получатель/импортер
№
ООО ОМЕГА ПРОФИЛЬ
г. Душанбе, Турсунбаева, 9А Республика Кыргызстан

9 Лицо, ответственное за финансовое урегулирование
№
СП ООО AKFA ENGINEERING AND MANAGEMENT
г. Ташкент Учтелинский район, ул. Катта Хирмоната, 1, Республика Узбекистан
ИНН: 303807756 Реликс: 1726262

10 Страна 1-го назначения
10840,28

11 Торг. страна
49621,24

12
13

14 Декларант/представитель
№ 301527164
ООО "Globe Service"
г. Ташкент, Шаьзонгурский район, ул. Кичик Халва Йулдиз

15 Rec.No
OT

16 Декларант/представитель
№ 301527164
ООО "Globe Service"
г. Ташкент, Шаьзонгурский район, ул. Кичик Халва Йулдиз

17 Код страны назначения
10840,28

18 Транспортное средство при отправлении
1 АВТО: 90453BBA500737AA 000

19 Понт.
10

20 Условия поставки
02 FCA Навоийская область

21 Транспортное средство на границе

22 Валюта и общая фактур. стоим.
840 49321,24

23 Курс валюты
1/ 10840,28

24 Характер сделки торговли
21 840

25 Вид транспорта на границе
30

26 Вид транспорта внутри страны
30

27 Место погрузки/разгрузки

28 Финансовые и банковские сведения 1. / 303807756 / 203844820
2. ОПЕРУ ЧАКБ "TAJINAO-BANK"

29 Таможня на границе 03002 "Дустлик" ПК

30 Место досмотра товара

32 Товар
1 №

33 Код товара
3016200000

34 Код страны происхождения
860

35 Вес брутто (кг)
49321,24

36 Информация

37 Процедура
10 00 000

40 Общая декларация

42 Фактур. стоим. т-ра
49321,24

43

44

45
49621,24

46 Статистическая стоимость
49,621

899. ДРУДОК № 10 от 24.02.2022 тр расход

301. ... от 01.10.2021
302. СПУ... от 24.02.2022
303. СТРА... от 23.02.2022
899. ДРУДОК № 10 от 24.02.2022 тр расход

Вид	Основы начисления	Ставка	Сумма
10	537908135,55 (210000)	2025	540500

1-rasm. Eksport bojxona yuk deklaratsiyasi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. — T.: O'zbekiston, 2019 //http://www.lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi. 2016-yil /http://www.lex.uz.
3. O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 29-apreldagi "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi 611-II-son Qonuni// http://www.lex.uz.

4. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 9-apreldagi “Pochta aloqasi to‘g‘risida”gi 777-son Qonuni// <http://www.lex.uz>.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947 sonli Farmoni// <http://www.lex.uz>.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5414-sonli Farmoni // <http://www.lex.uz>.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-apreldagi “Bojxona ma‘muriyatchiligini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-122-sonli Farmoni// <http://www.lex.uz>
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 5-iyundagi “Bojxona ma‘muriyatchiligini isloh etish va O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-6005-sonli Farmoni// <http://www.lex.uz>.